




“TASDIQLAYMAN”

**Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i**

Sh. Jamoldinov

2025- yil “ 13 ” mart

Axborot xizmati to‘g‘risida

NIZOM

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Toshkent viloyati statistika boshqarmasi Axborot xizmatining (*keyingi o‘rinlarda - Axborot xizmati deb yuritiladi*) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Axborot xizmati Toshkent viloyati statistika boshqarmasi (*keyingi o‘rinlarda - Boshqarmasi deb yuritiladi*) bevosita boshqarmaning boshlig‘iga bo‘ysunadi.

3. Axborot xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlari jumladan, “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4366-son qaroriga, “Toshkent viloyati statistika boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Axborot xizmati o‘z faoliyatini boshqarma tarkibiy bo‘limlari, Toshkent viloyatining tumanlar va shahar statistika bo‘limlari (*keyingi o‘rinlarda - hududiy bo‘limlar deb yuritiladi*) shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Toshkent viloyati filiali bilan o‘zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

II bob. Axborot xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar axborot xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

boshqarma boshlig‘i tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida Axborot xizmati zimmasiga yuklangan vazifalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Toshkent viloyati filiali, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikda ta‘minlash;

boshqarma faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari

va tashkilotlarining rasmiy veb saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturlar tashkil etish yo'li bilan aholiga muntazam, to'liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

viloyatning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonlari haqida axborot berish va yoritish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

boshqarmaning ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini o'rganish;

ommaviy axborot vositalari (*keyingi o'rinlarda – OAV deb yuritiladi*) bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va bloggerlar doirasida tezkor ma'lumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini ta'minlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

muntazam ravishda OAVda boshqarma rahbariyati chiqishlarini tashkil etish;

axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, Internet tarmog'ida boshqarma faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

boshqarmaning tarmoq bo'limlari bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, ma'lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

boshqarmaning faoliyati to'g'risida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy OAVning pozitsiyasini o'rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular to'g'risida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;

boshqarmaning vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda o'z rasmiy veb saytida joylashtirish;

boshqarmaning faoliyatiga aloqador matnli, foto- ; audio- ; videomateriallardan iborat ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish.

6. Axborot xizmatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

OAVda, shu jumladan Internet tarmog'ida axborotlarni e'lon qiladi shuningdek, boshqarma rasmiy veb saytida ma'lumotlarni yangilab borishni ta'minlaydi;

OAV va jurnalistlar, bloggerlar, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarining so'rovi asosida ularga og'zaki va yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etadi;

boshqarma veb saytining zamonaviy darajada yuritilishi, shuningdek, boshqarmaning Internet tarmog'idagi: "Fasebook", "Telegram" va "Youtube" rasmiy sahifalari faolligini ta'minlaydi;

boshqarma tomonidan tashkil etiladigan rasmiy tadbirlardan teledasturlar, roliklar va lavhalar tayyorlashda va ularni montaj qilishda ishtirok etadi hamda ushbu materiallarni belgilangan tartibda saqlash uchun ularning arxivlashtirilishini ta'minlaydi.

III bob. Axborot xizmatining huquqlari va majburiyatlari

7. Axborot xizmati o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Axborot xizmatining vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni boshqarmaning tarmoq va hududiy bo'limlaridan belgilangan tartibda so'rab olish;

boshqarmaning yig'ilishlari, majlislari va boshqa tadbirlarida qatnashish;

qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun boshqarmaning boshlig'i bilan kelishgan holda idoraning boshqa bo'limlari xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan shartnoma asosida jalb etish;

rahbariyatning topshirig'iga ko'ra, davlat organlarida, viloyat bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda Axborot xizmati vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha boshqarma nomidan vakillik qilish;

boshqarmaning axborot siyosatini takomillashtirishga doir takliflarni, Axborot xizmati faoliyati masalalari bo'yicha normativ hujjatlar loyihalarini rahbariyatning ko'rib chiqishi uchun kiritish.

8. Axborot xizmati:

o'ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi, boshqarmaning faoliyatining milliy va mahalliy OAVda xolisona, sifatli va tezkor yoritilishini ta'minlash uchun javob beradi.

IV bob. Bo'limning tuzilmasi

9. Axborot xizmati rahbari bevosita boshqarmaning boshlig'iga bo'ysunadi va bir vaqtning o'zida boshliqning matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi.

10. Axborot xizmatiga AOKA xulosasiga ko'ra, boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

V bob. Yakunlovchi qism

11. Axborot xizmati qayta tashkil etish, qo'shib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mazkur nizom bilan tanishdim va uni bajarish majburiyatini olaman:

DAVRA

(imzo)

Myrzumucoba A. D.

(ismi, otasining ismi va familiyasi)

10.03.2025

(sana)